HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

THE RELATIONSHIP BETWEEN INVESTMENTS AND ECONOMIC GROWTH IN THE ECONOMY OF DEVELOPING COUNTRIES

Doniyev Shahob Utkir ugli
Karshi State University, Faculty of Economics,
2nd year student majoring in Economics
E-mail: shahobdoniyev@gmail.com
ORCID: 0009-0007-8616-8144

Abstract. This article provides a scientific analysis of the degree of interdependence between investments in the economies of developing countries and economic growth. In the course of our research, the role of investments in economic development, the efficiency of foreign and local capital investments, and the impact of the investment climate on economic stability were studied. Issues of expanding production volumes, creating new jobs, and ensuring innovative development through the attraction of investment are also highlighted.

Keywords. Investment, economic growth, the economy of developing countries, capital investments, investment climate, innovation, foreign investment, economic stability.

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR IQTISODIYOTIDA INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK

Annotatsiya. Mazkur maqolamizda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotidga kiritilayotgan investitsiyalar bilan iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik darajasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotlarimiz davomida investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni, xorijiy hamda mahalliy kapital qo‘yilmalarning samaradorligi va investitsion muhitning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va innovatsion rivojlanishni ta’minlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Investitsiya, iqtisodiy o‘sish, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyoti, kapital qo‘yilmalar, investitsion muhit, innovatsiya, xorijiy investitsiyalar, iqtisodiy barqarorlik.

СВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИЯМИ И ЭКОНОМИЧЕСКИМ РОСТОМ В ЭКОНОМИКАХ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН

Аннотация. В данной статье с научной точки зрения анализируется степень взаимосвязи между инвестициями в экономику развивающихся стран и экономическим ростом. В ходе нашего исследования были изучены роль инвестиций в экономическом развитии, эффективность иностранных и отечественных капиталовложений и влияние инвестиционного климата на экономическую стабильность. Также освещены вопросы расширения объемов производства, создания новых рабочих мест и обеспечения инновационного развития путем привлечения инвестиций.

Ключевые слова. Инвестиции, экономический рост, экономика развивающихся стран, капиталовложения, инвестиционная среда, инновации, иностранные инвестиции, экономическая стабильность.

Kirish. Bugungi kunda jahon iqtisodiyoting jadal sur’atlarda rivojlanishi hamda globallashuv sharoitida rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda kapital oqimlari mamlakatlarning iqtisodiy

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

salohiyatini yanada oshirish, ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Ayniqsa, xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va xalqaro integratsiyani kuchaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish ko‘p jihatdan investitsion faollik darajasiga bog‘liq bo‘lib, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar milliy iqtisodiyotga zamonaviy boshqaruv tajribasi, ilg‘or texnologiyalar va xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuv imkoniyatlarini olib kiradi. Shu bilan bir qatorda, mahalliy investitsiyalar ham iqtisodiyotning ichki salohiyatini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda ishlab chiqarish tarmoqlarining raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotimizning dolzarbligi shundan iboratki, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari investitsion faoliyat bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Shu tufayli investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini chuqur o‘rganish va samarali investitsion siyosatni shakllantirish zarurati yuzaga keladi. Bugungi kunda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsion muhitni yaxshilash, huquqiy kafolatlarni mustahkamlash va investorlar uchun qulay iqtisodiy sharoit yaratish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki investitsion muhitning barqarorligi va jozibadorligi iqtisodiy o‘sish sur’atlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Investitsiyalarning yetarli darajada jalb qilinmasligi esa ishlab chiqarish samaradorligining pasayishi, texnologik ortda qolish va iqtisodiy rivojlanish sur’atlarining sekinlashuviga olib kelishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Investitsiyalar hamda iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiyot nazariyasining eng muhim va dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar investitsion siyosatni shakllantirishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xususan, klassik iqtisodiy nazariya vakillaridan biri bo‘lgan Jon Meynard Keyns investitsiyalarni yalpi talabning asosiy tarkibiy qismi sifatida baholab, ularning iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergan. Bundan tashqari, xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri masalasi bo‘yicha M. Blomstrom, E. Borensztein va D. Carkovic kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalar texnologiyalar transferi, mehnat unumdorligining oshishi va eksport salohiyatining kengayishi orqali iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi qayd etilgan. Shu bilan bir qatorda, mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida ham investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni keng yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishda investitsion siyosatning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Mahalliy tadqiqotlarda investitsiyalarni jalb etishda davlat tomonidan yaratilayotgan qulay iqtisodiy sharoitlar, erkin iqtisodiy zonalar faoliyati hamda xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilingan. Adabiyotlar tahlilidan ham shuni ko‘rishimiz mumkinki, investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biri sifatida barcha iqtisodiy nazariyalarda muhim o‘rin egallaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotlarimizda iqtisodiy tahlil, tizimli yondashuv, tadqiqotning mantiqiy va taqqoslash usullari, ta’sir etuvchi omillar tahlili, induksion va deduksion tahlil usullari, ko‘p variantli prognoz, kuzatishlar hamda statistik tahlil, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalandik. Tadqiqot davomida iqtisodiy nazariyalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi asosida investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri baholandi. Tahlil jarayonida investitsion muhitning sifat ko‘rsatkichlari hamda makroiqtisodiy barqarorlik omillari ham inobatga olindi.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

O‘tkazilgan tahlillar va erishilgan natijalar. Tadqiqotlarimiz natijalariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aytishimiz mumkin. Ayniqsa, investitsiya hajmining yanada ortishi ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga, yangi korxonalar tashkil etilishi va ish bilan bandlik darajasining oshishiga olib kelishi ham namoyon bo‘ldi. Tahlillarimiz davomida rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiyalarning asosiy ikki turi - mahalliy va xorijiy investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishga turlicha ta’sir etishi aniqlangan. Mahalliy investitsiyalar asosan ichki ishlab chiqarish bazasini mustahkamlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy investitsiyalar esa mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shimcha moliyaviy resurslar, ilg‘or texnologiyalar va boshqaruv tajribalarini olib kiradi. Natijada mehnat unumdorligi oshadi, eksport salohiyati kengayadi va iqtisodiy integratsiya jarayonlari jadallashadi.Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalar texnologik yangilanish darajasini jadallashtirib, eksport salohiyatining ortishiga xizmat qilmoqda. Investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi omili sifatida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun strategik ahamiyatga ega. Ammo investitsiya hajmining o‘zi yetarli emas, balki ularning samaradorligi ham muhim hisoblanadi. Kapital qo‘yilmalar sanoat, energetika, transport va yuqori texnologiyalar kabi ustuvor tarmoqlarga yo‘naltirilganda iqtisodiy samaradorlik yuqori bo‘ladi. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, investitsion muhit barqaror bo‘lgan davlatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda, korrupsiya darajasi yuqori va siyosiy beqarorlik mavjud mamlakatlarda investitsiya oqimlari o‘z-o‘zidan sekinlashadi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, investitsion muhitning qulayligi investitsiyalar samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Siyosiy barqarorlik, huquqiy kafolatlarning mavjudligi, soliq tizimining shaffofligi hamda tadbirkorlik uchun yaratilgan imkoniyatlar investorlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, korrupsiya darajasining yuqoriligi, byurokratik to‘siqlar va iqtisodiy noaniqlik investitsiya oqimining kamayishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlarda institutsional islohotlarni amalga oshirish investitsiyalar hajmini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Olingan natijalarimizga ko‘ra, aynan inson kapitaliga yo‘naltirilgan investitsiyalar ham uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, investitsiyalar va bandlik o‘rtasida ham mustahkam bog‘liqlik mavjudligi aniqlandi. Investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi yangi korxonalar tashkil etilishiga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga va natijada aholi bandligining oshishiga olib keladi. Bu esa aholining daromadlari ko‘payishi orqali ichki iste’mol bozorining kengayishiga ham ijobiy ta’sir qiladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va raqamli texnologiyalar sohasiga kiritilgan investitsiyalar mehnat unumdorligini oshiradi. Tadqiqotlarimiz natijalari sanoat, energetika, transport va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohalariga yo‘naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy o‘sishga nisbatan yuqori multiplikativ ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Ayniqsa, innovatsion texnologiyalar va raqamli iqtisodiyotga yo‘naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi. Bunday investitsiyalar ishlab chiqarish tannarxini kamaytirib, mahsulot sifatini oshirish hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Yakuniy natijalarimiz esa investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning strategik drayveri ekanligini ko‘rsatdi. Samarali investitsion siyosat yuritilishi orqali rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, sanoatlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va aholining turmush darajasini oshirishdagi eng muhim omillardan bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, investitsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishining muhim omili hisoblanadi. Investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshirish, texnologik modernizatsiyani jadallashtirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga bevosita xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari xorijiy va mahalliy investitsiyalar iqtisodiyotga turlicha, biroq o‘zaro uyg‘un ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Mahalliy investitsiyalar ichki iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

muhim rol o‘ynasa, xorijiy investitsiyalar zamonaviy texnologiyalar, ilg‘or boshqaruv tajribasi va qo‘shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtiradi. Shuningdek, investitsion muhitning qulayligi investitsiya oqimining ko‘payishida hal qiluvchi omillardan biri ekanligi aniqlandi. Siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, qonunchilik tizimining shaffofligi, investorlar huquqlarining himoyalanganligi hamda infratuzilmaning rivojlanganligi investitsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umumiy qilib aytadigan bo‘lsak, samarali investitsiya siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish hamda aholi farovonligini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri investitsion muhitning barqarorligi, huquqiy tizimning shaffofligi, infratuzilmaning rivojlanganligi hamda inson kapitalining sifatiga bevosita bog‘liq ekanligini ham unutmasligimiz kerak. Investitsiyalarni innovatsion va yuqori samaradorlikka ega tarmoqlarga yo‘naltirish uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Stattistika Qo‘mitasi ma’lumotlari. Manba: https://stat.uz/uz/
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi investitsitya ma’lumotlari. Manba: https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments
3. Aqilov A., Rahimov N. Xorijiy investitsiyalar va milliy iqtisodiyot rivoji. - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2019.
4. OECD. International Direct Investment Statistics. - Paris, 2022.
5. Ayupov, R.X., Baltabaeva, G.R. (2018). Raqamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya. 172 b.
6. https://www.oecd.org/investment/statistics.htm
7. Bekmurodov A.Sh., Jo‘rayev A.B. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar va ularning milliy iqtisodiyotga ta’siri. – Toshkent: “Iqtisodiyot”, 2023. – 212 b.
8. Bakiyeva, I. (2025). O‘zbekistonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar dinamikasi va ularning iqtisodiy o‘sishga ta’siri (2016-2025-yillar tahlili). Qo‘qon Universiteti xabarnomasi, 16, 179–183. Manba: https://herald.kokanduni.uz/index.php/public_html/article/view/1277
9. J.M.Keyns “Ish bilan bandlike, foiz va pulning umumiy nazariyasi”.
10. Jahon Banki: 2026-2027 yillar uchun Jahon iqtisodiyoti istiqbollari. Manba: https://invexi.org/uz/press/world-bank-global-economic-prospects-for-2026-2027/
11. Xalqaro valyuta jamg‘armasi: O‘zbekistonda Iqtisodiy ko’rsatkichlar kuchliligicha qolmoqda. Manba: https://invexi.org/uz/press/international-monetary-fund-uzbekistan-s-economic-performance-remains-strong/